<b>Nazarov Nazirjon Narzilloyevich</b>	



# HUDUDIY BARQAROR RIVOJLANISHNI UCH BOSQICHLI STRATEGIK YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

**Nazarov Nazirjon Narzilloyevich**

Alfraganus university, "Iqtisodiyot" kafedrası dotsent v.b.

E-mail: [nnazarov0482@gmail.com](mailto:nnazarov0482@gmail.com)

ORCID: 0000-0002-9100-5645

**Annotatsiya.** Maqolada hududiy barqaror rivojlanishni uch bosqichli strategik yondashuv asosida shakllantirishning dolzarbligi tahlil qilinadi. Birinchi bosqich tuman darajasida strategiyalarni ishlab chiqishga, ikkinchi bosqich viloyat darajasidagi strategiyalarni shakllantirishga, uchinchi bosqich esa mamlakat darajasida hamda qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan hududlararo strategiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Maqolada har bir daraja bo'yicha rejalashtirish, muvofiqlashtirish va amalga oshirish mexanizmlari, shuningdek hududiy rivojlanishga ta'sir etuvchi asosiy omillar ilmiy jihatdan yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** hududiy rivojlanish, barqarorlik, uch bosqichli strategiya, tuman va viloyat darajasi, xalqaro hamkorlik, eksport salohiyati.

**Abstract.** The article analyzes the relevance of shaping regional sustainable development based on a three-level strategic approach. The first level focuses on the development of strategies at the district level, the second level addresses the formation of strategies at the regional (provincial) level, while the third level emphasizes the development of interregional strategies at the national level implemented in cooperation with neighboring countries. The study examines planning, coordination, and implementation mechanisms at each level, as well as key factors influencing regional development.

**Keywords:** regional development, sustainability, three-level strategy, district and regional levels, international cooperation, export potential.

**Аннотация.** В статье анализируется актуальность формирования территориального устойчивого развития на основе трехуровневого стратегического подхода. Первый уровень ориентирован на разработку стратегий на районном уровне, второй — на формирование стратегий на областном уровне, третий — на разработку межрегиональных стратегий на национальном уровне, реализуемых в сотрудничестве с соседними государствами. В статье научно обоснованы механизмы планирования, координации и реализации на каждом уровне, а также рассмотрены ключевые факторы, влияющие на территориальное развитие.

**Ключевые слова:** территориальное развитие, устойчивость, трехуровневая стратегия, районный и областной уровни, международное сотрудничество, экспортный потенциал.

## KIRISH

Mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi — ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik tizimlarni uyg'unlashtirish orqali hududlarning uzoq muddatli salohiyatini oshirishni nazarda tutuvchi strategik jarayondir. Bugungi kunda hududiy rivojlanish masalalari nafaqat iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki ekologik muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni oqilona boshqarish hamda jamiyatning ijtimoiy farovonligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, barqaror rivojlanish konsepsiyasi mintaqaviy darajada iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy parametrlarni o'zida mujassamlashtirgan strategik yondashuvni talab qiladi.

Barqaror rivojlanish nafaqat joriy avlod ehtiyojlarini qondirishga, balki kelajak avlodlarning resurs va imkoniyatlarini saqlab qolishga ham qaratilgan. Bu esa iqtisodiy o'sish va rivojlanish jarayonlarini kelajak avlod manfaatlarini cheklamagan holda amalga oshirishni nazarda tutadi. Shu bois, hududiy barqaror rivojlanish



strategiyasini ishlab chiqishda uzoq muddatli rejalashtirish, ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash, shuningdek rivojlanish afzalliklarini jamiyat bo'ylab adolatli taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaviy barqaror rivojlanishni strategik yondashuv asosida shakllantirishning dolzarbligi shundan iboratki, u hududlarni rivojlantirish jarayonini uch darajali tizimga asoslaydi. Birinchi daraja tuman darajasidagi strategiyalarni, ikkinchi daraja viloyat darajasidagi strategiyalarni, uchinchi daraja esa mamlakat darajasida hamda qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan hududlararo strategiyalarni qamrab oladi. Har bir daraja o'ziga xos rejalashtirish, muvofiqlashtirish va monitoring mexanizmlarini talab etadi, bu esa strategik maqsadlarni samarali amalga oshirish imkonini yaratadi.

Shuningdek, barqaror rivojlanishning uch o'lchovli strategiyasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ijtimoiy adolatni mustahkamlash orqali hududlarning kompleks rivojlanishini kafolatlashga xizmat qiladi. Shu bois, mintaqaviy barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb hamda ilg'or ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaraladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy barqaror rivojlanish masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda strategik rejalashtirish bilan uzviy bog'liq holda o'rganilmoqda. Jumladan, Ye. G. Gushchina hududiy barqaror rivojlanishni strategik rejalashtirish orqali ta'minlash masalasini tizimli yondashuv asosida tahlil qilib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'p darajali boshqaruv mexanizmlariga tayangan holda amalga oshirilishini asoslab beradi. Muallif hududiy strategiyalarni ishlab chiqishda resurs salohiyati, institutsional muhit va hududlararo hamkorlik omillarining muhimligini ta'kidlaydi hamda strategik rejalashtirish barqaror rivojlanishga erishishning asosiy instrumentlaridan biri ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Markaziy Osiyo mintaqasida hududiy barqaror rivojlanishni ta'minlash masalalari davlatlararo hamkorlik bilan chambarchas bog'liq holda ko'rib chiqilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" sammitlaridagi nutqlarida mintaqaviy integratsiya, transport-logistika yo'laklarini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalalariga alohida urg'u berilgan. Ushbu chiqishlarda hududiy rivojlanishni faqat milliy darajada emas, balki qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda amalga oshirish zarurligi asoslab berilib, bu yondashuv uch darajali strategik rivojlanish konsepsiyasining amaliy asosini tashkil etadi.

Shuningdek, ochiq axborot manbalarida keltirilgan tahliliy materiallarda O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik, investitsiya loyihalari va hududiy rivojlanishga qaratilgan qo'shma tashabbuslar mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili sifatida baholanadi. Xususan, Navoiy viloyatida xorijiy investorlar bilan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari hududiy rivojlanishda ishlab chiqarish, bandlik va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgan amaliy misol sifatida ko'rsatib o'tiladi. Bu holatlar hududiy barqaror rivojlanishni quyi, o'rta va yuqori darajalarda strategik muvofiqlashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy tadqiqotda hududiy barqaror rivojlanishni uch bosqichli strategik yondashuv asosida o'rganish uchun asosan ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, rasmiy statistik ma'lumotlar, ilmiy maqolalar hamda ochiq axborot manbalarida e'lon qilingan tahliliy materiallar yig'ildi. Shuningdek, hududiy rivojlanish bo'yicha mavjud strategiyalar, mintaqaviy hamkorlik tashabbuslari va investitsiya loyihalariga oid axborotlar tahlil uchun asos sifatida tanlandi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda tizimli va mantiqiy tahlil usullaridan, taqqoslash va umumlashtirish yondashuvlaridan foydalanildi. Hududlar o'rtasidagi rivojlanish darajasi, strategiyalar uyg'unligi hamda ularning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jihatlari o'zaro solishtirildi. Natijada uch darajali strategik yondashuvning hududiy barqaror rivojlanishga ta'siri ilmiy asosda baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida jahon miqyosida barqaror rivojlanishni ta'minlash bilan bog'liq muammolarni hal etishga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada kuchaydi. Bugungi kunda nafaqat iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar, balki rivojlanayotgan mamlakatlar ham barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Mazkur jarayon doirasida ko'plab davlatlarda barqaror rivojlanishga o'tishni ko'zda tutuvchi milliy dasturlar ishlab chiqilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham rivojlanayotgan mamlakat sifatida Markaziy Osiyo mintaqasidagi geografik o'rni, demografik salohiyati hamda tabiiy-iqtisodiy resurslari imkoniyatlarini inobatga olgan holda barqaror rivojlanishni ta'minlash masalasiga strategik ahamiyat qaratmoqda.



Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirishni jadallashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-sonli qarori qabul qilinib, mazkur yo'nalishda tizimli chora-tadbirlar belgilandi [1].

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, mamlakatning barqaror innovatsion rivojlanishi hududlar va yirik shaharlarning samarali faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayon investitsiyalar oqimini ta'minlash, bandlik darajasini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda aholi turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlatning innovatsion siyosati uzoq muddatli hududiy rejalashtirish va strategiyalarni ishlab chiqishni uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni hamda hududiy boshqaruv tizimini takomillashtirishni talab etadi. Hududlarni strategik boshqarish mexanizmlarining rivojlanganlik darajasi mamlakat iqtisodiyotida samarali tarkibiy o'zgarishlarga erishishda muhim omil hisoblanadi [2].

Shu nuqtai nazardan, mamlakat taraqqiyot darajasi uning ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik rivojlanish ko'rsatkichlari, shuningdek hududiy barqaror rivojlanish strategiyalarining zamonaviy talablar bilan uyg'unligi bilan belgilanadi. Hozirgi kunga qadar respublika, viloyat va tuman miqyosida turli dasturlar qabul qilingan bo'lsa-da, ularning o'zaro integratsiyalashuvi va uzviy bog'liqligi yetarli darajada ta'minlanmagan. Ko'plab dasturlar mavjud resurslardan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lib, muammolarni kompleks va tizimli yondashuv asosida hal etish mexanizmlari yetarli darajada aks ettirilmagan.

Taklif etilayotgan uch darajali barqaror rivojlanish strategiyasi aynan ushbu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, mazkur model quyi (mahalliy), o'rta (hududiy) va yuqori (milliy) darajalardagi strategiyalarni o'zaro uyg'un va bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida shakllantirishni nazarda tutadi.

Quyi (birinchi) darajadagi barqaror rivojlanish strategiyasi. Quyi, ya'ni birinchi darajadagi barqaror rivojlanish strategiyasi tuman va tumanlararo miqyosda amalga oshiriladigan strategiyani ifodalaydi. Ushbu darajada asosiy e'tibor tumanlar o'rtasida ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini kengaytirish, korxonalararo kooperatsiyani shakllantirish, alohida soha va tarmoqlarni rivojlantirish uchun boshlang'ich institutsional va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratishga qaratiladi. Shuningdek, savdo aloqalarini faollashtirish, muhandislik-kommunikatsiya va transport infratuzilmasini rivojlantirish, ekologik muvozanatni ta'minlash maqsadida "yashil hududlar"ni kengaytirish hamda hududiy aglomeratsiyalarni shakllantirish ushbu darajaning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

Hozirgi kunda tumanlar reyting tizimining joriy etilishi sharoitida iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan va davlat dotatsiyasiga tayanayotgan hududlarni rivojlantirishda quyi darajadagi strategiya alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda yuqori reytingga ega bo'lgan qo'shni tumanlar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali kam rivojlangan tumanlarni iqtisodiy jihatdan faollashtirish imkoniyati yaratiladi. Shu jarayonda ekologik barqarorlik, ijtimoiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish omillariga kompleks yondashuv asosida alohida e'tibor qaratiladi.

Bundan tashqari, tumanlarning mavjud resurs va salohiyatidan kelib chiqqan holda hududiy ixtisoslashuvni shakllantirishning dastlabki bosqichi aynan quyi darajadagi strategiya doirasida amalga oshiriladi. Hududlarda joriy etilayotgan "Bir hudud – bir mahsulot" [3], klaster tizimlari, mikromarkazlar, kichik va erkin sanoat zonalarini kabi rivojlanish instrumentlari mazkur darajada mustahkamlanib, ular keyingi — o'rta va yuqori darajadagi strategiyalar uchun boshlang'ich institutsional va ishlab chiqarish bazasini shakllantiradi. Natijada ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni ichki va tashqi bozorlarga, jumladan eksportga yo'naltirish uchun zarur poydevor yaratiladi.

O'rta (ikkinchi) darajadagi barqaror rivojlanish strategiyasi. O'rta, ya'ni ikkinchi darajadagi barqaror rivojlanish strategiyasi viloyat va viloyatlararo miqyosda qo'shni hududlar o'rtasida o'zaro hamkorlikka asoslangan strategik rivojlanishni nazarda tutadi. Ushbu darajada asosiy e'tibor qo'shni viloyatlar o'rtasida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va infratuzilma sohalarida kooperatsiyani rivojlantirishga qaratiladi.


Aynan qo'shni hududlar o'rtasidagi hamkorlik transport xarajatlarini kamaytirish, mehnat resurslarining samarali harakatlanishini ta'minlash, ishga qatnash bilan bog'liq vaqt va xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv aholining majburiy ichki migratsiyasini kamaytirishga xizmat qilib, aholi uchun uy-joy, ijtimoiy moslashuv va qo'shimcha moliyaviy yuklar bilan bog'liq muammolarning oldini olishga yordam beradi.

Mazkur strategiya doirasida iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan va dotatsiyaga tayanayotgan viloyatlarning qo'shni, nisbatan rivojlangan viloyatlar bilan hamkorligi orqali ularning iqtisodiy faolligini oshirish ko'zda tutiladi. Shuningdek, quyi darajadagi strategiyada shakllangan rivojlanish instrumentlari yanada kengaytirilib, turli sohalarga investitsiyalarni jalb qilish, hududlararo bozorlarni o'zaro mahsulotlar bilan ta'minlash tizimi rivojlantiriladi. Transport tarmoqlarining yaxshilanishi, aglomeratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi va bandlikning oshishi natijasida viloyatlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar qisqaradi hamda yuqori darajadagi strategiyani amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar shakllanadi.

Yuqori (uchinchi) darajadagi barqaror rivojlanish strategiyasi. Yuqori, ya'ni uchinchi darajadagi barqaror rivojlanish strategiyasi Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan, ya'ni qo'shni tashqi hududlar miqyosida

amalga oshiriladigan mintaqaviy hamkorlikka asoslangan strategiyani ifodalaydi. Ushbu darajada umumiy xarakterga ega bo'lgan muammolarni birgalikda hal etish, tabiiy resurslardan oqilona va adolatli foydalanish, ayniqsa transchegaraviy suv resurslarini boshqarish masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan suv resurslarining asosiy qismi qo'shni davlatlar hududidan shakllanadi.

Shuningdek, mintaqaviy infratuzilma loyihalari, jumladan yangi irrigatsiya va kanal qurilishi bilan bog'liq tashabbuslar mintaqa suv-xo'jalik balansiga bevosita ta'sir ko'rsatishi bois, bunday jarayonlar doirasida muvofiqlashtirilgan yondashuvni talab etadi. Uchinchi darajadagi strategiya doirasida sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika, transport, logistika, infratuzilma va xizmatlar sohalarida o'zaro kooperatsiyani rivojlantirish, qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish, korxonalar filiallarini ochish, kadrlar tayyorlash hamda eksport-import aloqalarini kengaytirish muhim yo'nalishlar sifatida belgilanadi.



1-rasm. Uch darajali hududiy barqaror rivojlanish strategiyasi madeli [7].

Bundan tashqari, mintaqaviy transport-logistika yo'laklari orqali jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, xususan Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston yo'lagi [4] hamda Transkaspiy multimodal marshruti orqali Yaqin Sharq va Yevropa Ittifoqi bozorlariga chiqish Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston mahsulotlarining eksport salohiyatini oshiradi [5]. Shu bilan birga, tovar ayirboshlash hajmini ko'paytirish, eksport-import faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shma dasturlar ishlab chiqish, rivojlangan davlatlarning yetakchi kompaniyalarini mintaqaga jalb etish orqali ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu strategiya doirasida ekotizimlar barqarorligini mustahkamlash, "yashil" energetikani rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish hamda turizm salohiyatini oshirish mintaqaviy barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi [6]. Yuqori darajadagi barqaror rivojlanish strategiyalarining izchil amalga oshirilishi mamlakatlar o'rtasidagi do'stona va sheriklik munosabatlarini mustahkamlash bilan bir qatorda, mintaqada tinchlik, barqarorlik va uzoq muddatli izchil taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur model barqaror rivojlanish maqsadlarini yagona tizimga birlashtirishga qaratilgan bo'lib, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni mahalliy, milliy hamda mintaqaviy darajalarda samarali hal etish uchun boshqaruvning turli bosqichlari o'rtasida uzviy muvofiqlashtirish va hamkorlikni taqozo etadi.

Modelning quyi bosqichi tuman va tumanlararo munosabatlar doirasida mahalliy, jamoat yoki munitsipal darajada barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Ushbu boshqaruv darajasi milliy va mintaqaviy ustuvor yo'nalishlarni mahalliy jamoalarning o'ziga xos ehtiyojlari, resurslari va sharoitlariga moslashtirish uchun asosiy boshlang'ich platforma vazifasini bajaradi. Bu jarayonda manfaatdor tomonlarni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish, barqaror tashabbus va amaliyotlarni ilgari surish hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish holatini monitoring qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy boshqaruv organlari milliy va mintaqaviy hokimiyat tuzilmalari, fuqarolik jamiyati institutlari, biznes subyektlari va aholi bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali hududiy barqarorlikni ta'minlashga intiladi.

Modelning ikkinchi bosqichi viloyat miqyosida yoki ma'lum bir geografik hudud doirasida barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni qamrab oladi. Ushbu darajada hududiy resurslar salohiyatini baholash, barqaror rivojlanish uchun mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda mintaqaviy muammolar va ustuvor vazifalarga mos keluvchi rivojlanish dasturlarini shakllantirish asosiy yo'nalish hisoblanadi. Shu bilan birga, viloyat darajasida mahalliy jamoalar, tadbirkorlik subyektlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish orqali strategiyalarning samarali ijrosi ta'minlanadi.

Modelning milliy bosqichi esa mintaqaviy barqaror rivojlanish strategiyalarini davlat miqyosidagi ustuvor maqsad va siyosatlar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan. Ushbu darajada barqaror rivojlanishning umumiy yo'nalishlari belgilanadi, mintaqaviy va mahalliy rivojlanish tashabbuslarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy



asoslar ishlab chiqiladi. Shuningdek, mintaqaviy loyihalarni moliyalashtirish, institutsional salohiyatni oshirish, barqaror rivojlanish jarayonlarini monitoring qilish va baholash mexanizmlarini rivojlantirishda milliy daraja hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bundan tashqari, qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, transchegaraviy muammolarni birgalikda hal etish orqali umumiy mintaqaviy barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Global va mintaqaviy miqyosdagi zamonaviy muammolarni bartaraf etish hamda kelajak avlodlar uchun munosib sharoitlarni yaratish bugungi kundagi strategik qarorlar va amaliy harakatlarga bevosita bog'liqdir.

Modelning amaliy qo'llanilishiga misol sifatida Navoiy viloyatini keltirish mumkin. Mazkur hududda hozirgi kunga qadar tuman va shaharlar darajasida sakkizta, viloyat darajasida esa ikkita rivojlanish dasturi qabul qilingan. Ushbu dasturlarning aksariyatida mavjud tabiiy resurslardan foydalanishni kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratilgan bo'lib, barqaror rivojlanish tamoyillari yetarli darajada tizimli tarzda aks ettirilmagan. Shunga qaramay, barqaror rivojlanishning muhim instrumentlarini joriy etishga qaratilgan alohida qarorlar ham mavjud. Jumladan, viloyat va tumanlararo "yashil belbog" dasturining amalga oshirilishi ekologik xavflarni kamaytirish va hududiy landshaftni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Yana bir amaliy misol sifatida G'azg'on shahrida marmar va granit toshlarini qazib olish va chuqur qayta ishlashga yo'naltirilgan loyihalarni keltirish mumkin. Ushbu jarayonda birinchi bosqichda investitsiyalarni jalb etish orqali ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish va yangi ish o'rinlarini yaratish, ikkinchi bosqichda klaster tizimini shakllantirish, uchinchi bosqichda esa tayyor mahsulotlarni eksportga yo'naltirish ko'zda tutilmoqda. Xususan, Avstriyaning «Parsalpine GmbH» kompaniyasi [8] tomonidan G'azg'on shahrida tabiiy toshlarni qazib olish va chuqur qayta ishlash bo'yicha investitsiya loyihasini amalga oshirishga tayyorlik bildirilgani ushbu yondashuvning amaliy tasdig'i hisoblanadi.

Mazkur bosqichma-bosqich vazifalarni rejalashtirish va amalga oshirish uchun darajali hududiy barqaror rivojlanish modeli doirasida taklif etilayotgan mexanizmlarga mos keluvchi amaliy namuna sifatida xizmat qiladi. Umuman olganda, uch darajali hududiy barqaror rivojlanish strategiyasi modeli boshqaruvning turli darajalari o'rtasida muvofiqlashtirilgan va ko'p bosqichli yondashuvni ta'minlash orqali barqaror rivojlanishni rag'batlantirish hamda hududlar duch kelayotgan ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni kompleks tarzda hal etishga qaratilgan tizimli mexanizmni shakllantirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, uch darajali barqaror rivojlanish strategiyasining dolzarbligi uning qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat ko'rsatish hamda boshqa barcha tarmoqlarda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni tuman darajasidan boshlab milliy va xalqaro bozorlar, jumladan eksport bosqichigacha tizimli ravishda olib chiqish imkonini yaratishida namoyon bo'ladi. Ushbu strategiya doirasida korxonalar o'rtasida samarali kooperatsiyani shakllantirish, ishlab chiqarish zanjirlarini rivojlantirish va hududlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash orqali aholi farovonligini oshirish uchun zarur bo'lgan qulay ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish ko'zda tutiladi.

Shuningdek, murakkablashib borayotgan zamonaviy global va mintaqaviy sharoitlarda mazkur strategiya hududiy rivojlanishda to'g'ri va uzoq muddatli yo'nalishlarni tanlashga xizmat qilib, barqaror rivojlanish sohasida belgilangan ustuvor maqsadlarga erishish jarayonini jadallashtirish hamda ularning izchil amalga oshirilishini ta'minlash uchun samarali institutsional va amaliy mexanizm sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/4013356>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi "2023–2024-yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi № PQ–52-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/6380177>
3. Гущина Е. Г. Strategicheskoye planirovaniye ustoychivogo territorialnogo razvitiya // Nauchnoye obozrenie. Referativnyy jurnal. – 2016. – № 4. – S. 130–154. URL: <https://abstract.science-review.ru/ru/article/view?id=1802> (data obrashcheniya: 02.10.2022).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammitidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/5649>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" ikkinchi sammitidagi nutqi. <https://yuz.uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-markaziy-osiyo-evropa-ittifoqi-ikkinchi-sammitidagi-nutqi>
6. <https://www.xabar.uz/tahlil/ozbekiston-tojikiston-va-turkmaniston-nimalarga-kelishib-oldi>
7. [https://dunyo.info/cyrl/site/inner/navoiy\\_viloyatida\\_avstriyalik\\_sarmoyadorlar\\_bilan\\_investitsiya\\_loyihalarni\\_amalga\\_oshirish\\_boyicha\\_kelishuvga\\_erishildi-YRh](https://dunyo.info/cyrl/site/inner/navoiy_viloyatida_avstriyalik_sarmoyadorlar_bilan_investitsiya_loyihalarni_amalga_oshirish_boyicha_kelishuvga_erishildi-YRh)

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)